
BUGUN TOSHLOQ TUMANIDA “XAVFSIZ HAYOT UCHUN” VELO VA TEZ YURISH MARAFONLARI O‘TKAZILDI

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “Xavfsiz hayot uchun” marafonini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishiga asosan Toshloq tumanida “Xavfsiz hayot uchun” shiori ostida velosport hamda tez yurish marafonlari o‘tkazildi.

Mazkur marafonning maqsadi kelib chiqishi mumkin bo‘lgan yo‘l-taransport hodisasi bilan bog‘liq ayanchli oqibatlarni oldini olish, sog‘lom turmush tarziga chorlash, ishtirokchilarining yo‘llarda harakatlanish madaniyatini oshirishga qaratilgan. Marafonda tuman huquq-tartibot organlari xodimlari, keng jamoatchilik vakillari, yoshlardan iborat 500 nafarga yaqin sport ixlosmandlari ishtirok etdilar. Marafon yakunida g‘oliblar faxriy yorliq hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

2023-03-09 18:09:31